

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT
KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI.**

Salimova Marjona Abduraxim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.

Axmadova Madinabonu Ulmas qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida axborot kommunikatsion texnologiyalar (AKT)ning bo‘lajak o‘qituvchilarni shakllantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. O‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda AKTning o‘rni, o‘quv jarayonini o‘ziga xos ehtiyojlar va xususiyatlarga moslashtirish va samaradorligini oshirishda uning imkoniyatlari yoritib beriladi. Maqolada AKTning turli xil o‘qitish resurslariga kirish imkoniyatini kengaytirish, ta’lim uslublarini boyitish, o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish va o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishini rag’batlantirishdagi roli batafsил ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: Axborot texnologiyalari, bilim, ko‘nikma, malaka, raqamlashtirish, ta’lim, pedagog, zamonaviy, kommunikatsiya, multimedia.

Аннотация: В статье подробно анализируется значение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в формировании будущих педагогов в современной системе образования. Освещается роль ИКТ в повышении профессиональной квалификации педагогов, ее возможности в индивидуализации и повышении эффективности образовательного процесса. В статье подробно рассматривается роль ИКТ в расширении доступа к различным учебным ресурсам, обогащении методов обучения, усилении взаимодействия с учащимися и стимулировании профессионального развития учителей.

Ключевые слова: Информационные технологии, знания, навыки, компетентность, цифровизация, образование, педагогика, современное, коммуникация, мультимедиа.

Annotation: The article analyzes in depth the importance of information communication technologies (ICT) in the formation of future teachers in the modern educational system. The role of ICT in improving the professional competence of Teachers, its capabilities in individualizing and improving the effectiveness of the educational process are highlighted. The article examines in detail the role of ICT in expanding access to various teaching resources, enriching educational styles, strengthening interaction with students and promoting professional development of teachers.

Key words: Information technologies, knowledge, skills, competence, digitization, education, pedagogy, modern, communication, multimedia.

KIRISH.

XXI asr-axborot texnologiyalari davri. Hozirgi globallashuv davrida texnologiyalar rivojlanib bormoqda, kundan kunga yangi ilg'or texnologiyalar, loyihalar yaratilmoqda va hayotga tadbiq etilmoqda. Texnologiya, iqtisodiyot kabi bir qator sohalar qatorida ta'lif sohasi o'rghanishda ham yangiliklar yaratilmoqda. Pedagogika sohasini o'rghanishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Chunki, bo'lajak o'qituvchilardan yetuk malakali kadr va zamonaviy pedagog bo'lishlari talab etilmoqda. Bu esa o'z navbatida bo'lajak pedagoglardan axborot kommunikatsion texnologiyalari, o'qitish texnologiyalaridan foydalangan holatda dars jarayonlarini tashkil etishni talab qiladi.

Hozirgi globallashuv davrida axborot texnologiyalari yosh avlodni axborot jamiyati voqeligiga tayyorlashni talab qiladi. Ayniqsa, professional sohada-oliy ta'limda mutaxassislarni sifatli va bilimli qilib tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchilarni shakllantirishdagi eng muhim vazifalardan biri axborot madaniyati va axborot kompetensiyasidir. Shu boisdan bo'lajak o'qituvchilarni

shakllantirishda zamon bilan hamnafas bo‘lgan holda axborot kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanadigan kadrlarni tayyorlash muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida” gi PF-5847-sonli Farmonida Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlari, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mustaqil va tanqidiy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish, iqtidorli yoshlar orasidan oliy ta’lim muassasalariga talabalarni saralab olish mexanizmlarini ishlab chiqish to‘g’risida belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekistondagi barcha oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilariga axborot texnologiyalarini o‘qitish va o‘rgatish metodikasini yangi raqamlashtirish sharoitlarini takomillashtirishga muhtoj. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim Fan va Innovatsiyalar vazirligi tomonidan „Raqamli ta’lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo‘yiladigan umumiyl talablar“ ishlab chiqildi. Mazkur talablar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi tavsiya etiladi:

- innovatsion ta’lim resurslaridan foydalanishni tartibga solish;
- ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirish;
- mustaqil ta’limni va innovatsion o‘qitish usullarini qo‘llash;
- ta’limda virtual muhitni yaratish, o‘rganishning o‘ziga xos va xavfsiz usullaridan foydalanishni joriy etish;
- xalqaro tajribalarda qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish.

Har bir oliy ta’lim muassasasining ta’lim siyosati ijtimoiy himoyalangan bo‘lib, doimiy o‘zgarib turadigan sharoitlarga moslashgan holda va kasbiy kommunikativ

kompetentlikni shakllantirgan raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash muammosini hal etishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

ASOSIY QISM

Yurtimizda deyarli barcha pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni shakllantirishda yangi bilim ko‘nikmaga ega bo‘lgan raqamli va axborot kommunikatsion texnologiyalarni mukammal biladigan kadrlarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda.

Rivojlanishning dastlabki bosqichlarida tarbiya-ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dasturlari ishlab chiqildi, ulardan ta’lim jarayonida foydalanish to‘g’risidagi fikrlar ijobiylari tanqidiy tarzda qayta ko‘rib chiqildi, ta’lim jarayonida foydalanish bo‘yicha bazalar yaratildi. Dars jarayonida to‘liq ta’limni o‘qituvchi darsga aralashmasdan faqat axborot-kommunikatsiya vositalaridan tashkil etish mumkinligi haqidagi takliflar ham rad etilgan. Biroq, axborot-kommunikatsiya vositalari nafaqat o‘qituvchilarni odatdagisi, an’anaviy ôqitish vazifalardan ozod qildi, balki dasturlashtirish, o‘qitish materiallari va texnik muvofiqlashtirish bilan bog’liq vazifalarni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababli, o‘quv jarayonida raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak boshlang’ich sinf o‘qituvchilariga axborot texnologiyalarini o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish uchun o‘qituvchi texnologiya vositalari, ulardan foydalanish va qo‘llash, o‘qitish usullari va yondashuvlari o‘rtasidagi to‘g’ri muvozanatni bilishi kerak. Eng muhimmi, ta’limda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentsiyasini oshirishga, tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish usullarini o‘rganishga, intellektual kompetentsiyani, kognitiv faollikni, ijodiy fikrplashni, fikr yuritishni o‘rgatishda yordam beradi.

Nima uchun bugungi kunda ta’limda axborot-kommunikatsiyalardan foydalanish zarur? Birinchidan, zamonaviy texnologiyalar orqali bilim berish ta’lim sifatini oshiradi. Ikkinchidan, o‘qituvchining ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishida muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim tizimini isloh qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri

axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta’lim jarayonini tizimli tashkil etish, integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Axborot texnologiyalari yordamida qisqa vaqt ichida o‘qituvchi ham o‘quvchi ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi. Axborot kommunikatsion texnologiyalari bu axborotlarni saqlash, to‘plash, uzatish va qayta ishlashga mo‘ljallangan vositalar to‘plami hisoblanadi.

Raqamlashtirish sharoitida taqdimot dasturlari, virtual labaratoriyalar, onlayn resurslar orqali ta’lim jarayonida o‘quvchilarni jalg qilish va ta’limni samarali tashkil etish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda joriy qilish quyidagilarni beradi:

- o‘quv va ilmiy axborotlarni professor-o‘qituvchilar hamda talabalar tomonidan qidirib topishga ketadigan vaqtning qisqarishi;
- elektron o‘quv adabiyotlar mazmunini davr talabidan kelib chiqqan holda o‘zgartirishni tezlashtirilishi;
- talabalarning mustaqil ta’lim olishlari uchun qo‘srimcha vaqtning ajratilishi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘quv jarayonida qo‘llashning multimedia-texnologiyalar asosida interaktiv va qiziqarli ma’ruzalarni tashkil qilish hisoblanadi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar o‘rtasida tajriba almashish va hamkorlik qilish birmuncha osonlashadi. Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalarini tadbiq qilish va foydalanishdan asosiy maqsad – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, ya’ni ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchilar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berish hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarning ta’limga keng kirib kelishi bilan ko‘pgina davlatlarda shu bilan birgalikda O‘zbekistonda ham masofaviy ta’lim va malaka oshirishning masofadan turib o‘qish kurslari ham keng kirib keldi va amaliyotda qo‘llanilmoqda. Masofaviy ta’limning o‘quv-uslubiy negizini tashkil qiluvchi elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish bo‘yicha ham bir qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda elektron ta’lim jarayonida oliy ta’lim va

maktablar uchun darslik va qo'llanma, avtomatlashtirilgan test tizimlari, multimedia tizimlari ishlab chiqilib, o'quv jarayonida keng foydalanilmoqda. Axborot-kommunikatsion texnologiyalarining respublikamiz boshqaruv tizimida bosqichma-bosqich joriy qilinib borilishi natijasida jamiyatimizni to'liq axborotlashitirish, ta'lim tizimi tarkibida axborot va kommunikatsion bilimlarga asoslangan tizimni shakllantirish ko'zda tutilmoqda.

Pedagoglarning axborot-texnologik jarayonlarni qay darajada bilish jarayoni bir nechta komponentlarni o'z ichiga oladi. Ulardan biri axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ularni kasbiy faoliyatda qay darajada qo'llash metodikasini egallash hisoblanadi. O'zbekiston respublikasining ta'limni axborotlashtirish yangi konsepsiyasida talaba va pedagoglarning ta'limni qay darajada axborotlashtirish sharoitlarida ulardan kompyuter texnologiyalaridan tog'ri va samarali foydalanish zaruratinini ko'zda tutadi. Shu sababli ta'lim jarayonida bilim berishda raqamli ta'lim resurs(RTR) laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarni shakllantirishda ta'limning zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari negizida rivojlanib borishi maqsadga muvofiqidir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limni intensivlashtirishga va optimallashtirishga faqat ta'lim sohasida emas balki tibbiyot, xizmat ko'rsatish va sanoatda ham muhim ahamiyatga ega. Masofaviy malaka oshirishni tashkil etishda ham axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchi kadrlari malakasini oshirishdan asosiy maqsad o'qituvchilarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda bilim, ko'nikma va malakalarini pedagogik mahoratlarini hamda kompyuter texnologiyalari, multimedialar, mobil texnologiyalar va bulutli texnologiyalardan foydalanish malakasini shakllantirishdir.

Bugungi kunda pedagogik ta’lim samaradorligini oshirish bilan bevosita aloqador bo‘lgan bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar ta’lim sohasini axborotlashtirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini biladigan o‘qituvchi kadrlar tayyorlash, o‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish malakasining yetarli emasligi bilan bog’liqdir.

Bu muammolarning muhim qirralaridan biri sifatida o‘qituvchilarning o‘zlarida ta’limni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashga bo‘lgan munosabatlarini ko‘rsatish mumkin. Shu narsani ta’kidlash joizki, axborotlashtirish sharoitida o‘qituvchining pedagogik mahorati hozirgi zamon talablari darajasida yanada oshadi.

Hozirgi kunda barcha ta’lim muassasalari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan deyarli jihozlanmoqda. Bu, o‘z navbatida, o‘qituvchilardan axborot texnologiyalarini bilish yondashuvlarini talab etadi. O‘quv jarayonida yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o‘qituvchini yanada o‘qib o‘rganishga, izlanishga va uni o‘z faoliyatida qo‘llay olishi o‘qituvchilik faoliyatini yanada serqirra kasbga aylantiradi.

Kompyuter va zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal sur’atda rivojlanishi hozirgi zamon o‘qituvchisining pedagogik mahoratini namoyon qilishida yordam beradi. Hozirgi davrda olimlar ham innovatsion ta’lim texnologiyalari tarkibini samarali usul va vositalari haqida va axborot kommunikatsion texnologiyalarning afzalliklari va kamchiliklari haqida fikr yuritmoqdalar. Ayniqsa, axborot-kommunikatsion texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim muhitini shakllantirishga va innovatsion darslarni tashkil etishga keng imkoniyatlarni ochib bermoqda. Eng so‘nggi axborot-kommunikatsion texnologiyalar texnik yutuqlar ko‘pincha ta’lim jarayonida o‘zining munosib o‘rnini egallaganligini ko‘rishimiz mumkin. O‘quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga darslarni yanada qiziqarli bo‘lishiga yordam beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali dars jarayonini tashkil etish qiyin vazifalarni hal qilishda o‘qituvchining har bir ta’lim oluvchiga yakka tartibda yordam berishini ta’minlash imkonini beradi. O‘quv fanlari

bo‘yicha elektron o‘quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o‘z navbatida, talabalarning mazkur fanlar bo‘yicha bilimlarini chuqur o‘zlashtirishlarining asosiy omili bo‘lib, ta’lim sifati va samaradorligini oshiradi. Hozirgi innovatsion texnologiyalar zamonida oliv o‘quv yurtlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri o‘z ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha chuqur nazariy bilimlar, puxta amaliy malakalarga ega bo‘lgan yetuk zamonaviy bakalavr va magistrler tayyorlab yetishtirishni óz oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shunga asoslanib hozirgi kunda zamon talablariga mos axborot kommunikatsion texnologiyalarga doir bilimlarni muvaffaqiyatli egallash orqali barcha sohalarda tadbiq qilish va qöllash mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z faoliyatlar davomida faqat axborot kommunikatsion texnologiyalar savodxonligi bilan cheklanib qolmasdan ular bilan amalgal oshiriladigan metodikalar haqida ham ma’lumotga ega b’lishlari lozim. Bugungi kunda deyarli barcha pedagoglar ham o‘z faoliyatida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalana olmaydilar. Bu esa ta’lim jarayonini eski yondashuvlar asosida tashkil qilishga olib keladi. Lekin hozirgi kunda ta’limda an’anaviy emas zamonaviy ta’lim yaxshi natija bermoqda. Maktablarda ham axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish bo‘yicha 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab Prezidentining qaroriga binoan umumiyo‘rta ta’lim maktablarida ham 1-sinf o‘quvchilari uchun “Informatika va axborot texnologiyalari” fani joriy etildi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarda axborot texnologiyalari haqida ko‘nikmalarga bilib va tajribaga ega bo‘lishdir.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki, bo‘lajak o‘qituvchilarni shakllantirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarning afzalliklari juda ko‘p. Chunki axborot kommunikatsion texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarni shakllantirishda muhim vositalaridan biridir. Ular ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatida ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalarning

qo'llanishi orqali o'quvchilarni to'liq darsga jalb qilish hamda qiziqtira olishiga yordam beradi. Axborot kommunikasion texnologiyalar zamonaviy ta'limda juda keng qo'llaniladi. Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar qo'shimcha ma'lumotlar ham olishlari mumkin. Axborot kommunikatsion texnologiyalari zamonaviy ta'limni innovatsion darajada rivojlantirishda ham muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 25.01.2021-yildagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori
2. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-sonli Farmoni
3. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi „Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi 25-son qarori
4. Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar vazirligi "Raqamli ta'lim resurslari va ulardan foydalaniladigan dasturiy vositalarga qo'yiladigan umumiyl talablar"
5. Mannanova N.H. O'zbekistonda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidamasofaviy ta'limning shakllanishi va rivijlanishi. (Phd). ...dis. – Toshkent, 2019. – 143b.
6. Alkarova E.M. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida pedagog kadrlar uzlusiz kasbiy rivojlanishini boshqarish samaradorligini oshirish. (Phd). ...diss. – Toshkent, 2021. – 140b.
7. G'afforova. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: 2016
8. Eshmirzayeva, G (2022). Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda axborot-texnologik kompetentligining o'rni va roli. (NamDU axborotnomasi)